

I. Karimov nomidagi TDTU “Raqamli elektronika va mikroelektronika” kafedrası bitiruvchisi Choriyev Sirojiddin O‘ktam o‘g‘lining **«IKS-21 infraqizil spektrometrni spektr shkalasidan raqamli malumot oluvchi sxemani yaratish»** mavzusi bo‘yicha bitiruv malakaviy ishiga

TAQRIZ

Bitiruvchi S.O‘.Choriyevning malakaviy bitiruv ishi IKS-21 infraqizil nur spektrometri raqamli sxema bilan takomillashtirishga bag‘ishlangan.

Bizga ma‘lumki IKS-21 qurilmasida chiquvchi nurning to‘lqin uzunligi prizmani aylanma harakatlantirish orqali amalga oshiriladi. Pirizmani burash esa qo‘l yordamida amalga oshiriladi. Chiqishda hosil bo‘layotgan to‘lqin uzunligi dastakdagi maxsus ko‘rsatkichlar orqali graduировka jadvalidan aniqlanadi. Shu sababli bitiruvchi tomonidan yaratilgan sxema tajriba jarayonini yengillashtirish uchun xizmat qiladi.

Ma‘lumotlarni qayd etishda raqamli enkoder ishlatilganligi bois yaratilgan qurilma universal hisoblanadi. Chunki enkoder bilan boshqa aylanma harakatlarni ham qayt etsa bo‘ladi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishi: kirish, adabiyotlar tahlili, asosiy qism, yaratilgan sxema, iqtisodiyot qismi, hayot faoliyati xavfsizligi, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhatidan iboratdir. Malakaviy bitiruv ishi S.O‘. Choriyev tomonidan muvaffaqiyatli bajarilgan.

BMI matnida ba‘zi stilistik va orfografik xatolar uchrab turadi. Shunga qaramasdan malakaviy bitiruv ishi yuqori bahoga, bitiruvchining o‘zi 5310800 – “Elektronika va asbobsozlik” yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr darajasiga loyiq deb hisoblayman.

TDTU «MF» fak. “**Asbobsozlik**”
kafedrası dotsenti



A.H. Haydarov